

O'QUVCHINING MUAMMOLARINI ERTA ANIQLASHDA OILA-MAKTAB HAMKORLIGIGA ASOSLANGAN EAS MODELINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Rashidova Sabina Mansur qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18068004>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'lim darajasida o'quvchilarning akademik, intizomiy va psixologik muammolarini erta aniqlashga xizmat qiluvchi Early Alert System (EAS) tizimi tahlil qilinadi. Oila va maktab hamkorligiga asoslangan monitoring mexanizmi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oila – maktab hamkorligi, EAS modeli, o'quvchi muammolari, erta aniqlash, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, psixologik holati va o'quv faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni erta aniqlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchida paydo bo'ladigan ijtimoiy, psixologik yoki o'quv faoliyatiga oid muammolar o'z vaqtida aniqlanmasa, ularning chuqurlashuviga va ta'lim samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida maktab va oila hamkorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda oila – maktab hamkorligiga asoslangan EAS (Early Assessment and Support – erta baholash va qo'llab-quvvatlash) modeli o'quvchining muammolarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchining muammolari kech aniqlanganda, uning o'qish natijalariga, xulq-atvoriga va ijtimoiy hayotdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli jahon tajribasida erta ogohlantirish tizimlari (EAS) keng qo'llanilmoqda. Ushbu tizim o'quvchida boshlanayotgan salbiy og'ishlarni erta bosqichda aniqlab, ularning oldini olish imkonini yaratadi.

Asosiy qism. EAS – bu o'quvchining kunlik ma'lumotlar (davomat, baholari, uy vazifalari bajarilishi), xulq-atvori, darslarni o'zlashtirishdagi faolligi, hissiy-emotsional holati bo'yicha ma'lumotlarni to'playdigan va tahlil qiladigan tizimdir.

Tizim xavf belgisi paydo bo'lganida ota-ona va o'qituvchini ogohlantiradi. EAS modeli o'quvchining muammolarini erta bosqichda aniqlash, baholash va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi.

Oila–maktab hamkorligiga asoslangan EAS modelining pedagogik ahamiyati

EAS modeli bosqichlari	Mazmuni	Oila ishtiroki	Maktab(Pedagog) ishtiroki	Pedagogik ahamiyati
E – Erta aniqlash (Early identification)	O'quvchining xulq-atvori, o'qishdagi qiyinchiliklari va emotsional holatini dastlabki bosqichda aniqlash	Farzandning uy sharoitidagi xulqi, kayfiyati, qiziqishlari haqida ma'lumot beradi	Kuzatuv, diagnostik testlar, suhbat va monitoring olib boradi	Muammolar chuqurlashib ketishining oldi olinadi
A – Tahlil va hamkorlik (Analysis & cooperation)	Aniqlangan muammoni birgalikda muhokama qilish va sabablarini	O'z fikrini bildiradi, tarbiyaviy muhitni baholaydi	Psixolog, sinf rahbari va fan o'qituvchilari bilan tahlil qiladi	Oila va maktab o'rtasida ishonchli hamkorlik shakllanadi

S – Strategiya va yechim (Strategy & support)	aniqlash Individual yondashuv asosida muammoni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish	Uyda qo'llab-quvvatlash, nazorat va motivatsiya yaratadi	Individual ta'lim rejasi, korreksion mashg'ulotlar tashkil etadi	O'quvchining shaxsiy rivojlanishi va moslashuvi ta'minlanadi
Monitoring va baholash	Amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini baholash	Farzanddagi o'zgarishlar haqida muntazam axborot beradi	Natijalarni tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi	Barqaror ijobiy natijaga erishish imkoniyati oshadi
Natija	O'quvchining ijtimoiy, emotsional va akademik rivoji	Oila pedagogik jarayonning faol subyektiga aylanadi	Maktabda inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhit shakllanadi	Ta'lim sifati va tarbiya samaradorligi ortadi

Xorij tajribasida EAS quyidagi muammolarni erta aniqlashga xizmat qiladi: sababsiz darsga kelmaslik, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, zo'ravonlik yoki psixologik bosim holatlari, baholarning ketma-ket tushishi kabi muammolarning har biri tizim tomonidan xavf signali sifatida qayd etiladi. EAS modelini O'zbekiston sharoitida moslashtirishda Kundalik.com kabi platformalarda EAS modulini yaratish, Psixolog, sinf rahbari va ota-ona o'rtasida tezkor muloqot kanali tashkil etish orqali natijaga erishish mumkin. Oila-maktab hamkorligiga asoslangan EAS modeli nafaqat o'quvchining mavjud muammolarini aniqlash, balki ularning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur modelda diagnostika, monitoring va pedagogik qo'llab-quvvatlash bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ayniqsa, ota-onalar bilan muntazam muloqot va pedagogik maslahatlar o'tkazish o'quvchining rivojlanishidagi salbiy omillarni erta bartaraf etishga yordam beradi. Oila-maktab hamkorligiga asoslangan EAS modeli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich: Kuzatish

- O'qituvchilar o'quvchining kundalik faoliyatini (uy vazifasi, faollik, xulq, o'qish sur'ati) elektron tizimga kiritadi.

2-bosqich: Tahlil

- Haftalik monitoring maktab psixologi va sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Baholarda yoki intizomda 10–15% pasayish kuzatilsa, tizim signal beradi.

3-bosqich: Ota-ona bilan tezkor aloqa

- Tizimning signalidan so'ng ota-ona maktabga chaqiriladi yoki elektron tizim orqali xabardor qilinadi, shunda oilaning shoshilinch aralashuvi ta'minlanadi.

4-bosqich: Yordam choralarini belgilash

- qo'shimcha mashg'ulotlar;
- psixolog bilan suhbatlar;
- oilaviy maslahat;
- individual o'quv rejasi.

5-bosqich: Natijalarni qayta baholash

• 2–4 hafta davomida o'quvchining holati kuzatiladi va chora-tadbirlar samaradorligi tahlil qilinadi.

EAS modeli asosida ishlash jarayonida maktab psixologi, sinf rahbari va fan o'qituvchilari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa o'quvchining akademik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda uning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvorini ham nazorat qilish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashgan holda tashkil etiladi va inklyuziv yondashuv ta'minlanadi. Mazkur modelda maktab pedagoglari, psixologlar va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik muhim o'rin tutadi. Oila va maktab o'rtasida muntazam axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi o'quvchining rivojlanishidagi muammolarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

EAS modelining pedagogik ahamiyati, avvalo, muammolarni profilaktika qilish imkoniyati bilan izohlanadi. O'qituvchi va ota-onalarning hamkorlikda olib borilgan kuzatuvlari orqali o'quvchining xulq-atvori, o'qishga munosabati va emotsional holatidagi o'zgarishlar erta aniqlanadi. Bu esa muammoni og'irlashmasdan oldin bartaraf etish uchun zarur pedagogik choralarni ko'rishga imkon yaratadi.

Shuningdek, mazkur model o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlaydi. Oila tomonidan berilgan ma'lumotlar o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi, maktab tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik qo'llab-quvvatlash esa maqsadli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Natijada o'quvchining o'qishdagi qiyinchiliklari, ijtimoiy moslashuv muammolari va psixologik holati bosqichma-bosqich yaxshilanadi.

EAS modeli oila va maktab o'rtasida pedagogik mas'uliyatning taqsimlanishini ham mustahkamlaydi. Ota-onalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, farzandining rivojlanishiga bevosita mas'ul ekanligini chuqur anglaydi. Bu holat o'quvchining ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'quvchining muammolarini erta aniqlashda oila – maktab hamkorligiga asoslangan EAS modeli yuqori pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur model o'quvchilarda yuzaga keladigan muammolarni erta aniqlash, ularni kompleks tahlil qilish va samarali pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash imkonini beradi. Oila va maktabning uzviy hamkorligi asosida tashkil etilgan EAS modeli ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-iyun 2012-yildagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 175 -sonli qaror
2. Yo'ldoshev J. "Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi" nomzodlik dissertatsiyasi, Toshkent. 2002
3. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova "Tarbiya ishlari metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent 2010.
4. Sharipov Sh.S. Oila va maktab hamkorligi pedagogik muammo sifatida. – Toshkent, 2016.